





SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-avgust
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **495,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga shu davriga nisbatan **23,2** mln. AQSh dollariga yoki **4,9** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)


	2021- yil	2022- yil	O'sish surati, foizda	jamiga nisbatan, foizda
 Tashqi savdo aylanmasi	472 389,5	495 613,5	104,9 %	x
Eksport 	158 069,7	198 601,0	125,6 %	100,0
 tovarlar	156 572,0	196 637,6	125,6	99,0
 xizmatlar	1 497,7	1 963,4	131,1	1,0
Import 	314 319,8	297 012,5	94,5 %	100,0
 tovarlar	314 319,8	297 012,5	94,5 %	100,0
 xizmatlar	00	0,0	0,0	0,0
 Saldo	-156 250,1	-98 411,5	x	x



Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **198,6** mln. AQSh dollariga (**25,6** % ga ko'paydi) va import hajmi **297,0** mln. AQSh dollariga (**5,5** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **98,4** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-avgust, ulushi, foizda.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI




Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-avgust oylarida **495,6** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **23,2** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Tojikiston, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-avgust)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (74,1 mln. AQSh dollari), ozog'iston (130,2 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (87,9 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (61,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahonning 65 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (15,0 %), Qozog'iston (26,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (17,8 %), Afg'oniston (12,5 %), Italiya (8,9 %), Tajikiston (2,3 %) va Turkiya (5,1 %) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2020	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	78,6	122,8	74,1
<i>Eksport</i>	19,1	29,3	39,7
<i>Import</i>	59,5	93,5	24,5
Qozog'iston	75,3	113,6	130,2
<i>Eksport</i>	16,8	14,4	16,0
<i>Import</i>	58,5	99,2	114,2
Xitoy Xalq Respublikasi	57,0	82,2	87,9
<i>Eksport</i>	13,8	32,0	36,0
<i>Import</i>	43,2	50,2	51,9



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Afg'oniston	34,6	56,2	61,9
 Eksport	34,6	56,2	60,9
Import	-	-	1,1
Pokiston	1,5	7,0	7,6
 Eksport	1,5	6,6	6,7
Import	-	0,4	0,9
Litva	4,4	2,3	1,2
 Eksport	-	-	-
Import	4,4	2,3	1,2
Qirg'iz Respublikasi	2,5	3,5	6,7
 Eksport	0,7	2,9	2,1
Import	1,8	0,6	4,6
Turkiya	10,5	16,4	25,1
 Eksport	0,9	7,1	14,9
Import	9,6	9,3	10,2
Italiya	0,8	4,7	44,0
 Eksport	-	-	-
Import	0,8	4,7	44,0
Germaniya	23,9	20,5	6,5
 Eksport	-	-	1,2
Import	23,9	20,5	5,3
Tojikiston	3,7	2,9	11,3
 Eksport	3,2	2,6	9,3
Import	0,5	0,3	2,0



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-avgust)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	495 613,5	104,9
Boyovut t.	30 214,1	155,7
Guliston t.	13 517,2	92,4
Mirzaobod t.	24 734,6	137,5
Oqoltin t.	6 466,6	78,4
Sardoba t.	5 124,0	100,3
Sayxunobod t.	33 540,1	77,4
Sirdaryo t.	191 318,0	169,8
Xovos t.	17 237,2	88,2
Guliston sh.	60 274,1	114,4
Shirin sh.	2 420,9	3,0
Yangiyer sh.	109 879,8	111,8

**Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari**

Sirdaryo t.– 191 318,0

Yangiyer sh. – 109 879,8

Guliston sh. – 60 274,1

**Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari**

Oqoltin t.– 6 466,6

Sardoba t.– 5 124,0

Shirin sh. – 2 420,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **38,6 %** ulush bilan **191 318,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,5 %** ulush bilan **2 420,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **46,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **6,7 %** ga kamaygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-avgust mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-avgust oylarida 2021- yil ulushiga nisbatan **14,3 %** ga ko'payib va jami TSA'dagi ulushi **53,5 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022- yil yanvar-avgust, ming AQSh dollari)



1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-avgust holatiga **230 269,1** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **69 710,2** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **160 558,9** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.


Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**32,1 %**), Qozog'iston (**56,5 %**), Qirg'iz Respublikasi (**2,9 %**), Turmaniston (**2,1 %**) va Tojikiston (**4,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.






SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-avgust, ming AQSh dollari, ulushi, foizda)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **212 025,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **58 116,5** ming AQSh dollari, import hajmi esa **153 908,5** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2022- yil yanvar-avgust)



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlari soni **159** tani tashkil etib, ular tomonidan **198 601,0** ming AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **25,6 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-avgust, ulushi, foizda)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,5 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**37,0 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**41,2 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**5,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami eksport	158 069,7	198 601,0	156,1	125,6	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	74 317,5	81 563,8	137,4	109,8	47,2	41,2
Ichimliklar va tamaki	5,8	30,4	175,8	5,2 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10 948,1	9 420,6	94,7	86,0	7,0	4,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	20,9	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	854,5	0,0	0,0	0,0	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3 385,8	9 858,8	76,2	2,9 m.	2,2	5,0
Sanoat tovarlari	49 225,2	73 254,1	2,5 m.	148,8	31,3	37,0
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	4 429,8	5 436,5	3,6 m.	122,7	2,8	2,7
Turli hil tayyor buyumlar	14 156,8	16 197,9	157,4	114,4	9,0	8,2
Xizmatlar	846,5	1 256,5	137,5	148,4	0,5	0,6



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-avgust oylarida **198 601,0** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **40 531,3** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	18 818,4	98,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	59 599,9	112,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	517,0	0,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	258,1	9,6 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	40,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	30,2	5,7 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 985,1	50,9
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	136,1	4,3 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	342,8	52,4
Qog'oz massasi va makulatura	3 448,2	13,4 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Ko'mir, koks va briketlar	13,9	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, foizda
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	854,5	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 362,3	120,6
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	167,2	105,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	129,6	2,0 m.
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	5 409,6	14,7 m.
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	52 204,5	164,8
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	11 585,3	105,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 740,2	147,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	269,9	120,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	204,0	14,2 m.
Sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4 692,5	157,8
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	14 208,4	105,4
Har hil tayyor buyumlar	1 118,7	187,1






MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-avgust, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Soʻnggi yiliarda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yilning yanvar-avgustida **32,4 %** ni 2022- yilning yanvar-avgustida **35,1 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **64,9 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-avgust, foizda)

2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afgʻoniston (eksport umumiy hajmining **30,8 %**), Rossiya Federatsiyasi (**20,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**18,2 %**), Qozogʻiston (**8,1 %**), Turkiya (**7,6 %**), Tajikiston (**4,7 %**) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **10,6** foizni tashkil etmoqda.



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-avgust, yillar kesimida)**




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, foizda		O‘rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Afg‘oniston	56 207,5	60 879,4	162,5	108,3	4	6
Rossiya Federatsiyasi	29 283,2	39 654,4	153,3	135,4	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	30 002,6	35 964,7	2,2 m.	119,9	3	4
Qozog‘iston	14 372,3	15 967,9	85,4	111,1	6	5
Turkiya	7 140,5	14 943,6	7,2 m.	2,1 m.	1	2
Tojikistan	2 580,0	9 292,5	79,6	3,6 m.	7	1
Qirg‘iz Respublikasi	2 876,7	2 060,1	4,1 m.	71,6	2	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	198 601,0	125,6
Boyovut t.	13 869,0	125,4
Guliston t.	12 382,2	98,4
Mirzaobod t.	19 212,0	177,9
Oqoltin t.	4 429,1	119,1
Sardoba t.	2 600,9	156,9
Sayxunobod t.	19 661,7	151,3
Sirdaryo t.	55 760,7	149,8
Xovos t.	11 459,3	109,2
Guliston sh.	17 186,2	102,1
Shirin sh.	1 575,3	48,5
Yangiyer sh.	39 577,7	107,5

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo t.– 55 760,7

Yangiyer sh. – 39 577,7

Sayxunobod t.– 19 661,7

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin t.– 4 429,1

Sardoba t.– 2 600,9

Shirin sh. – 1 575,3

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **28,1 %** ulush bilan **55 760,7** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida Shirin shahri **0,8 %** ulush bilan **1 575,3** ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **18 818,3** ming AQSh dollari qiymatli **34 871,1** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **257,2** ming AQSh dollarida kamaygani kuzatilib, **1,3** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **13 466,3** ming AQSh dollariga teng **21 833,0** tonna sabzavot, shuningdek, **5 352,0** ming AQSh dollari qiymatidagi **13 038,1** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-avgust)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **60,9** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollari	ulushi, foizda *
Afg'oniston	821,8	578,5	3,1
Pakistan	1 618,7	4 351,1	23,1
Rossiya Federatsiyasi	1 450,5	2 112,9	11,2
Qozog'iston	22 289,2	5 000,6	26,6
Xitoy Xalq Respublikasi	1 261,9	1 178,2	6,3
Eron (Islom Respublikasi)	1 633,4	1 705,6	9,1

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **26,6** % ga tashkil etdi.)



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-avgust)




2022- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **297 012,5** ming AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **94,5 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**37,5 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,9 %**) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (**28,9 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-avgust ulushi, foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17 307,3** ming AQSh dollariga kamayib va **297 012,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O‘sish sur‘ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami import	314 319,8	297 012,5	130,2	94,5	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	90 959,3	111 286,9	158,5	122,3	28,9	37,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	10 207,8	16 300,8	123,9	159,7	3,2	5,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	48 853,6	8 434,6	5,7 m.	17,3	15,5	2,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	6 137,8	4 390,8	12,8 m.	71,5	2,0	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	31 682,3	50 113,1	80,2	158,2	10,1	16,9
Sanoat tovarlari	19 918,1	17 273,4	125,2	86,7	6,3	5,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	99 906,9	85 718,5	100,3	85,8	31,8	28,9
Turli hil tayyor buyumlar	6 642,8	3 494,5	56,7	52,6	2,1	1,2
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0





Sirdaryo viloyati importi yanvar-avgust oylarida **297 012,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **1 7307,3** ming AQSh dollariga kamaydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	92 783,9	126,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	292,6	96,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	7 245,8	2,3 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 127,0	73,3
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	4 575,2	134,4
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	1 778,4	2,2 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	6 510,7	135,5
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	1 170,9	160,3 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 762,1	4,1
Ko'mir, koks va briketlar	6 672,5	108,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust)





XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, foizda
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	2 434,4	126,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	25 862,7	4,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 252,5	75,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	8 123,9	101,9
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	81,2	120,5
Noorganik kimyo moddalari	4 544,5	116,8
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	3 796,9	117,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1 474,5	53,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 873,6	89,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	8 092,0	91,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	69 511,2	146,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	9 966,0	57,6
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 162,0	84,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan kislari xam)	2 445,7	31,6
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 105,2	30,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	517,4	32,9
Har hil tayyor buyumlar	1 016,4	122,9
Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	4 385,8	71,5



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(2022- yil yanvar-avgustida, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



2022- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **46** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Qozog'iston, Germaniya, Koreya Respublikasi, va Turkiya) jami importning **90,0** % ulushini tashkil qildi, bu **267 311,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-avgust, foizda)



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-avgust, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	93 530,5	34 486,7	157,1	36,9	3	7
Qozog'iston	99 174,6	114 222,4	169,5	115,2	2	4
Xitoy Xalq Respublikasi	50 204,8	51 943,0	116,3	103,5	4	6
Italiya	4 747,8	44 035,0	5,7 m.	9,3 m.	1	1
Koreya Respublikasi	1 947,7	7 164,4	37,0	3,7 m.	7	3
Turkiya	9 297,5	10 164,0	96,7	109,3	5	5
Tojikiston	346,5	1 980,4	70,6	5,7 m.	6	2

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-avgust)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	297 012,5	94,5
Boyovut t.	16 345,1	195,8
Guliston t.	1 135,0	55,5
Mirzaobod t.	5 522,6	76,8
Oqoltin t.	2 037,5	45,0
Sardoba t.	2 523,1	73,2
Sayxunobod t.	13 878,4	45,7
Sirdaryo t.	135 557,3	179,7
Xovos t.	5 777,9	63,9
Guliston sh.	43 087,9	120,2
Shirin sh.	845,6	1,1
Yangiyer sh.	70 302,1	114,4

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo t.– 135 557,3

Yangiyer sh. – 70 302,1

Guliston sh. – 43 087,9

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin t.– 2 037,5

Guliston t. – 1 135,0

Shirin sh. – 845,6

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **45,6** % ulush bilan **135 557,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,3** % ulush bilan **845,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORTI



2022- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hajmi **111 286,9** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,3** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **37,5** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-avgust)



84,7%

Qozog'istan

94 210,9 ming.
AQSh dollari

6,9%

Rossiya Federatsiyasi

7 649,5 ming.
AQSh dollari

3,7%

**Qirg'iz
Respublikasi**

4 103,9 ming.
AQSh dollari

0,5%

Turkiya

562,0 ming.
AQSh dollari

0,4%

Germaniya

431,5 ming.
AQSh dollari



SANOAT TOVARLARI IMPORTI




2022- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **17 273,4** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,3** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **5,8** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-avgust)



Rossiya Federatsiyasi

8 786,4 ming. AQSh dollari
ulushi – 50,9 %



Xitoy Xalq Respublikasi

3 754,2 ming. AQSh dollari
ulushi – 21,7 %



Qozog'iston

2 860,8 ming. AQSh dollari
ulushi – 16,6 %



Turkiya

844,4 ming. AQSh dollari
ulushi – 4,9 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**8 092,0** ming AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**3 796,9** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**1 873,6** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

